

**MARKAZIY OSIYO - JANUBIY KAVKAZ – ANATOLIYA (CASCA+) MULTIMODAL
TRANSPORT YO‘LAGI: MINTAQAVIY LOGISTIKA TRANSFORMATSIYASINING
DINAMIKASI VA MUAMMOLARI**

Absamatov Mirodil

*O‘zbekiston xalqaro islomshunoslik akademiyasi
“Xalqaro munosabatlar” yo‘nalishi 3-bosqich talabasi*

Nazirov M

*Ilmiy rahbar: O‘zbekiston xalqaro islomshunoslik akademiyasi “Xalqaro
munosabatlar” kafedrasida dotsenti*

Annotatsiya: *Maqolada O‘zbekiston ishtirokida shakllanayotgan CASCA+ multimodal transport yo‘lagining mintaqaviy va global savdo tizimidagi o‘rni tahlil qilinadi. Multimodal tashishlarning afzalliklari, Markaziy Osiyo – Kavkaz – Turkiya – Yevropa yo‘nalishining strategik, iqtisodiy va geografik ustunliklari, mavjud infratuzilma salohiyati hamda yo‘lakning siyosiy-huquqiy asoslari batafsil yoritiladi. CASCA+ doirasida tarif imtiyozlari, konteyner poyezdlarining ko‘payishi, mintaqaviy hamkorlikning kuchayishi va transport oqimlaridagi o‘shish kabi ijobiy natijalar tahlil qilinadi. Shu bilan birga, ushbu yo‘lakni rivojlantirish bo‘yicha raqamlashtirish, logistika infratuzilmasini kengaytirish, port quvvatlarini oshirish va xalqaro hamkorlikni kuchaytirishga doir amaliy takliflar ilgari suriladi.*

Kalit so‘zlar: *multimodal transport, Markaziy Osiyo, Kaspiy dengizi, Transkaspiy yo‘lak (TITR), Xitoy–Yevropa savdo yo‘nalishi.*

KIRISH

Global logistika tizimida multimodal transport yo‘laklari iqtisodiy rivojlanishning asosiy omillaridan biriga aylanmoqda. Geosiyosiy o‘zgarishlar, mintaqaviy integratsiya va global ta‘minot zanjirlaridagi uzilishlar davlatlarni yangi transport marshrutlarini izlashga undamoqda. Shu nuqtai nazardan, O‘zbekistonning ishtirokida shakllanayotgan CASCA+ multimodal transport yo‘lagi mintaqqa mamlakatlari uchun muqobil, xavfsiz va iqtisodiy jihatdan samarali bo‘lgan yo‘nalish sifatida alohida ahamiyatga ega. Mazkur yo‘lak Markaziy Osiyo – Kavkaz – Yevropa bo‘ylab yuk tashishni tashkil etishga qaratilgan bo‘lib, tijorat aloqalarini faollashtirish va tranzit imkoniyatlarini kengaytirishni ko‘zda tutadi.

Multimodal transport tizimi – bu yuk va yo‘lovchilarni bir nechta turdagi transport vositalaridan (avtomobil, temir yo‘l, dengiz, havo) foydalanilgan holda uzluksiz va samarali tarzda tashishni ta‘minlaydigan integratsiyalashgan yondashuvdir. Ushbu tizim turli transport turlarining afzalliklarini birlashtirgan holda umumiy harakatni optimallashtiradi, tranzit vaqtini qisqartiradi va logistika jarayonlarini yanada barqaror qiladi. Masalan, yuk avval yuk mashinasida temir yo‘l terminaliga yetkazilishi, u yerdan poyezd orqali portga olib borilishi, so‘ng kemada yakuniy manzilga yetkazilishi mumkin. Bu jarayonlar yagona reja, yagona boshqaruv va zamonaviy raqamli texnologiyalar

orqali muvofiqlashtiriladi. Multimodal transport tizimi nafaqat samaradorlikni oshiradi, balki ekologik yukni kamaytirib, global savdo va iqtisodiy rivojlanishda muhim rol o'ynaydi.³⁷

CASCA+ multimodal transport yo'lagi – Ozarbayjon, Gruziya, Qirg'iziston, Turkmaniston, Turkiya va O'zbekiston davlat temir yo'llari ishtirokidagi qo'shma tashabbus. 2019-yil 20-dekabr kuni Toshkentda O'zbekiston Respublikasi Transport vazirligi ishtirokida Ozarbayjon, Gruziya, Qirg'iziston, Turkmaniston va O'zbekiston temir yo'l ma'muriyatlari rahbarlarining besh tomonlama uchrashuvi doirasida mazkur yo'lakni rivojlantirish bo'yicha Protokol imzolanishi natijasida hamkorlik yo'lga qo'yildi. 2021-yil 17-dekabrda ushbu Protokolga Turkiya qo'shilishi ortidan olti tomonlama Protokol imzolandi. Ushbu hujjat ishtirokchi davlatlar o'rtasida yuk tashish uchun imtiyozli tarif stavkalari va yagona tashish shartlarini belgilash, har bir davlatdan tranzit konteyner poyezdlarini tashkil qilishga mas'ul logistika kompaniyasini tayinlash, chegara punktlarida hamkorlikni kuchaytirish, shuningdek, davlatlar hududidagi yuk ko'chirish punktlarida logistika markazlarini rivojlantirishni nazarda tutadi. Hozirda ushbu yo'nalish uchta mintaqani qamrab oladi: Markaziy Osiyo (Qirg'iziston, O'zbekiston, Turkmaniston), Janubiy Kavkaz (Ozarbayjon va Gruziya), shuningdek, Anatoliya (Turkiya). Yo'nalish nomidagi "+" belgisi yo'nalish bo'yicha tashishlarda ishtirok etishdan manfaatdor yangi davlatlarni qabul qilishga tayyorlikni anglatadi. Loyihaning pirovard maqsadi – Janubi-Sharqiy Osiyo mamlakatlarini, jumladan Xitoy, Yevropa bilan bog'lashdir.³⁸

Bu transport yo'lagi o'zining bir qator afzalliklari va strategik ahamiyati nuqtayi nazaridan jozibadorligini saqlab qolmoqda. Xususan, ushbu yo'lakning eng asosiy strategik ustunligi uning geografik joylashuvi hamda Xitoy-Yevropa savdo chorrahasida joylashganligi bilan belgilanadi. Aynan Xitoy – Qirg'iziston – O'zbekiston – Turkmaniston – Ozarbayjon – Gruziya – Turkiya – Yevropa yo'nalishi Xitoydan Yevropaga eng qisqa geografik masofaga ega (4917 km).³⁹ Siyosiy jihatdan, CASCA+ Rossiya orqali o'tuvchi an'anaviy shimoliy yo'laklardan mustaqil bo'lgan, xavfsiz va barqaror muqobil marshrut sifatida shakllanadi. Mintaqaviy jihatdan, loyiha Markaziy Osiyo, Kavkaz va Turkiyani yagona logistika tizimiga bog'laydi. Bu nafaqat savdo oqimini oshiradi, balki siyosiy-dialog maydonlarini kengaytiradi. O'zbekiston va boshqa ishtirokchilar uchun Turkiya, Kavkaz va Yevropa bozorlariga chiqish imkoniyati kengayadi. Bu eksport mahsulotlarining narx raqobatbardoshligini oshiradi. Iqtisodiy jihatdan, O'zbekiston va boshqa ishtirokchi davlatlar yuk oqimlaridan keladigan tranzit to'lovlari orqali iqtisodiy foyda oladi.

So'nggi olti yil davomida "CASCA+" yo'nalishi mintaqaviy transport hamkorligining ustuvor yo'nalishiga aylandi. Yo'nalish faoliyatini muvofiqlashtirish maqsadida maxsus Muvofiqlashtiruvchi kengash tashkil etildi va bu platforma orqali ishtirokchi davlatlar o'rtasida tarif, tranzit sharoitlari va tashkiliy masalalarni soddalashtirish bo'yicha

³⁷ IRU. Facilitating trade and transit – Different types of freight transport: Multimodal transport. IRU – World Road Transport Organisation. <https://www.iru.org/what-we-do/facilitating-trade-and-transit/different-types-freight-transport/multimodal-transport-what-it>

³⁸ O'zbekiston xalqaro transport yo'nalishlarini kengaytirmoqda. <https://www.uzbekistan.jp/news/25285?language=uz>

³⁹ O'sha manba.

tizimli ishlar yo'liga qo'yildi. 70 foizgacha tarif imtiyozlarining joriy etilishi, yuk tashish jarayonini tezlashtirishga qaratilgan kelishuvlar, shuningdek, muntazam konteyner poyezdlarini shakllantirish bo'yicha qarorlar ushbu yo'nalishning siyosiy va institutsional barqarorligini ta'minladi.⁴⁰ 2023-yil iyun oyida Markaziy Osiyo davlatlari va Yevropa Ittifoqi sammitida O'zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev tomonidan CASCA+ yo'lagi joylashgan O'rta yo'lakni rivojlantirishning strategik ahamiyati qayd etildi. Shuningdek, "Global Gateway" tashabbusi doirasida Markaziy Osiyo davlatlari, Janubiy Kavkaz va Turkiya bilan hamkorlikni kuchaytirish CASCA+ yo'nalishining siyosiy asoslarini yanada mustahkamladi. 2024–2025-yillarda Kaspiy dengizida ikki dona yuk tashuvchi kema xarid qilish masalasining ko'rib chiqilayotgani ham ushbu yo'nalishning institutsional rivojlanishini davom ettirishga qaratilgan muhim tashabbusdir.

CASCA+ yo'nalishi ishga tushirilgandan buyon yuk tashish hajmlarida sezilarli o'sish kuzatildi. 2024-yilda O'zbekistonning eksport–import yuklari hajmi ushbu yo'nalish orqali 1 million tonnaga yetib, 2019-yilga nisbatan besh baravar oshdi. Konteyner tashish bo'yicha blok-poyezdlar soni 25 tadan 83 taga ko'tarilib, o'sish sur'ati 3,3 baravarni tashkil etdi. 2022-yilda yo'nalish orqali O'zbekistondan Bolgariyaga mis konsentrati ortilgan ilk konteyner poyezdi 4000 km dan ziyod masofani bosib o'tib, muntazam qatnovlarni yo'liga qo'yishning boshlanishi bo'ldi. Umumiy tashish hajmini yiliga 30 ming konteynerga yetkazish rejalashtirilgan.⁴¹ 2024-yil yakunlariga ko'ra, O'zbekiston va Yevropa o'rtasida Kaspiy orqali yuk tashish hajmi 1,1 mln tonnaga yetdi, bu 2020-yilga nisbatan 55% ko'p. Shuningdek, O'zbekistonning Yevropa Ittifoqi, Turkiya, Kavkaz mamlakatlari, AQSh va Braziliya bilan umumiy yuk aylanmasi 2,8 mln tonnaga yetib, O'rta koridor va CASCA+ yo'nalishining iqtisodiy salohiyati yildan-yilga kengayib bormoqda.⁴² 2024-yilda "Xitoy – Qirg'iziston – O'zbekiston" temir yo'lining qurilishiga start berilishi esa kelgusi besh yil ichida yo'nalishning tranzit salohiyatini 15 million tonnagacha oshirish imkonini berishi kutilmoqda.⁴³

Yuqoridagi muvaffaqiyatlarga qaramay, ushbu transport yo'lagi yuzasidan hali bir qator hal qilinishi lozim bo'lgan muammolar ham mavjud. Xususan, joriy yil 12-noyabr kuni Toshkent shahrida "CASCA+" yo'lagi bo'ylab joylashgan mamlakatlar transport vazirlari yig'ilishida ishtirok etgan O'zbekiston Respublikasi Transport vaziri I.Maxkamov mazkur loyihaning qurilishi yakunlaganidan so'ng, "CASCA+" yo'nalishi oqali qo'shimcha hajmlarni o'tkazish qobiliyati yetishmasligi ehtimolining yuqoriligi ta'kidlandi. CASCA+ yo'nalishining asosiy muammosi – yetarli infratuzilmaning mavjud emasligi bo'lib, bu transport jarayonlarini samarali amalga oshirishga to'sqinlik qilmoqda. Xususan, Kaspiy va Transkaspiy portlarining neft va gaz tashish quvvatlari cheklangan, natijada O'zbekiston va Markaziy Osiyo davlatlaridan o'tuvchi yo'lakning tranzit salohiyati pastligini saqlab qolmoqda. Hozirgi vaqtda Qozog'istondan neftni

⁴⁰ Toshkentda CASCA+ yo'lagi mamlakatlari transport vazirlarining uchrashuvi bo'lib o'tdi. UzDaily. <https://www.uzdaily.uz/uz/toshkentda-casca-yolagi-mamlakatlari-transport-vazirlarining-uchrashuvi-bolib-otdi/>

⁴¹ CASCA+ Transportation Corridor Challenges. <https://traceca.ge/en/news/casca+transportationcorridorchallenges>

⁴² O'zbekiston xalqaro transport yo'nalishlarini kengaytirmoqda. <https://www.uzbekistan.jp/news/25285?language=uz>

⁴³ Toshkentda CASCA+ yo'lagi mamlakatlari transport vazirlarining uchrashuvi bo'lib o'tdi. UzDaily. <https://www.uzdaily.uz/uz/toshkentda-casca-yolagi-mamlakatlari-transport-vazirlarining-uchrashuvi-bolib-otdi/>

Ozarbayjonga yetkazishda yuk avval temir yo'l orqali Kurik yoki Aktau portiga olib kelinadi, u yerda qayta yuklanib, kemaga tushiriladi, so'ng Boku portida yana temir yo'l yoki quvur orqali transport qilinadi. Ushbu murakkab va ko'p bosqichli jarayon oddiy Rossiya yo'lagiga nisbatan ko'proq vaqt talab qiladi va texnik jihatdan murakkab hisoblanadi. Kaspiy portlarining yillik o'tkazish qobiliyati 5–17 mln tonnani tashkil etgan holatda, eng yirik 10 portning umumiy sig'imi taxminan 100 mln tonnani tashkil etadi. Bu esa Qora dengizda joylashgan an'anaviy Novorossiysk (208 mln tonna) yoki Konstantsa (100 mln tonna) portlari bilan solishtirganda sezilarli darajada past.⁴⁴ Jiddiy muammolardan yana biri Kaspiy dengizi sathining pasayib borishi natijasida kemalar faqat 65% gacha yuklanishi, portlaridagi navbatlar cho'zilishi kuzatilayotganligi ma'lum qilindi. Yuk tashish hajmining oshishi "tor joylar" ni ko'rsatmoqda va tranzit vaqtining 40 kungacha uzayishiga sabab bo'lmoqda. Taqqoslash uchun: 2024-yil birinchi yarmi bo'yicha Yevroosiyo Temiryo'l Alyansi (ERAI) bergan ma'lumotlarga ko'ra, Xitoy–Yevropa Shimoliy yo'nalishidagi konteyner blok-poyezdlar harakati o'rtacha 7 kun davom etgan holatda yuk tashish narxi – 3289 AQSH dollarini tashkil qildi. "Transgroup Systems LP" bergan ma'lumotlarga ko'ra, Toshkentdan O'rta yo'lak orqali yuk tashish muddati 35–40 kuni tashkil etib o'rtacha narx 5500 dollarni tashkil etdi.⁴⁵

CASCA+ yo'nalishini rivojlantirish va mavjud muammolarni bartaraf etish bo'yicha bir qator strategik chora-tadbirlar belgilangan. Avvalo, mavjud transport infratuzilmasining salohiyatidan samarali foydalanish va yuk oqimlarini qayta taqsimlash orqali "Shimol–Janub" yo'nalishi va Transkaspiy xalqaro transport marshruti (TITR) orqali yuk tashish jarayonini optimallashtirish rejalashtirilgan. Shuningdek, terminal va ombor infratuzilmasini rivojlantirish, konteynerlar, kemalar va turli turdagi vagonlarning yetarli miqdorini ta'minlash, yuk tashish jarayonini barcha ishtirokchilar uchun shaffof qilish hamda multimodal va xalqaro jamoalarni shakllantirish orqali konteyner tashishlarda uzluksizlikni ta'minlash kabi chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. "Yagona oyna" tamoyili asosida bojxona jarayonlarini raqamli yechimlar bilan integratsiya qilish eksportyorlar uchun tranzit vaqtini qisqartirish va logistik jarayonlarni soddalashtirish imkonini beradi. Shu bilan birga, Xitoy, Qozog'iston va Yevropa Ittifoqi logistika operatorlari o'rtasida imzolangan uch tomonlama memorandumlar va Transkaspiy yo'lak orqali konteyner tashish hajmlarini oshirish bo'yicha loyihalar CASCA+ yo'nalishining mintaqaviy va xalqaro savdo-sotiq aloqalaridagi strategik ahamiyatini yanada mustahkamlashga xizmat qilmoqda.

Xulosa

CASCA+ multimodal transport yo'lagi Markaziy Osiyo, Kavkaz va Turkiya mintaqalarini Yevropa bilan bog'lovchi geostrategik va iqtisodiy jihatdan muhim tashabbus sifatida shakllanib, bugungi kunda global logistika tizimidagi o'zgarishlar fonida yanada dolzarblik kasb etmoqda. Transport yo'lagining asosiy afzalligi uning Xitoydan Yevropaga eng qisqa multimodal yo'nalishlardan biri sifatida

⁴⁴ Кегенбеков, Ж., Гамидова, Ю., & Бектурова, Д. (2024). Проблемы и перспективы Транскаспийского международного транспортного маршрута. Вестник КазАТК, 132(3), 149–157. <https://doi.org/10.52167/1609-1817-2024-132-3-149-157>

⁴⁵ O'zbekiston xalqaro transport yo'nalishlarini kengaytirmoqda. <https://www.uzbekistan.jp/news/25285?language=uz>

shakllanayotganidir. Bu esa yuk tashishlarni tezlashtiradi, xarajatlarni kamaytiradi va mintaqa davlatlari eksportining raqobatbardoshligini oshiradi.

Shu bilan birga, yo'nalishning samarali faoliyat ko'rsatishiga to'sqinlik qilayotgan qator muammolar mavjud: Kaspiy portlarining cheklangan o'tkazuvchanligi, suv sathining pasayishi, qayta yuklash jarayonlarining murakkabligi, kemalar va konteynerlar yetishmovchiligi, bojxona tartibotlarining to'liq raqamlashtirilmaganligi, shuningdek, tranzit jarayonlarining yuqori narxi va 35–40 kungacha cho'zilishi ushbu yo'lakning raqobatdoshligini susaytirmoqda. Ammo ishtirokchi davlatlar tomonidan olib borilayotgan chora-tadbirlar mazkur yo'nalishning istiqbolini yanada mustahkamlamoqda.

Umuman olganda, CASCA+ yo'lagi nafaqat Markaziy Osiyo davlatlarini global transport tizimining muhim bo'g'iniga aylantirish, balki Yevroosiyo bo'ylab barqaror, xavfsiz va ko'p qirrali savdo yo'laklarini shakllantirishga xizmat qiladi. Mavjud muammolarning bosqichma-bosqich bartaraf etilishi, infratuzilma modernizatsiyasi va raqamli boshqaruv mexanizmlarining to'liq joriy etilishi ushbu yo'nalishni xalqaro miqyosda raqobatbardosh, barqaror va uzoq muddatli iqtisodiy o'sish drayveriga aylantirishi shubhasizdir.

CASCA+ transport yo'lagining izchil rivoji O'zbekiston va ishtirokchi davlatlar uchun nafaqat tranzit daromadlarining oshishi, balki kengayib borayotgan global iqtisodiy aloqalarga faol qo'shilish imkonini beradi.

FOYDALANILGAN MANBA VA ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. IRU. Facilitating trade and transit – Different types of freight transport: Multimodal transport. IRU – World Road Transport Organisation. <https://www.iru.org/what-we-do/facilitating-trade-and-transit/different-types-freight-transport/multimodal-transport-what-it>
2. O'zbekiston xalqaro transport yo'nalishlarini kengaytirmoqda. <https://www.uzbekistan.jp/news/25285?language=uz>
3. Toshkentda CASCA+ yo'lagi mamlakatlari transport vazirlarining uchrashuvi bo'lib o'tdi. UzDaily. <https://www.uzdaily.uz/uz/toshkentda-casca-yolagi-mamlakatlari-transport-vazirlarining-uchrashuvi-bolib-otdi/>
4. CASCA+ Transportation Corridor Challenges. <https://traceca.ge/en/news/casca+transportationcorridorchallenges>
5. Кегенбеков, Ж., Гамидова, Ю., & Бектурова, Д. (2024). Проблемы и перспективы Транскаспийского международного транспортного маршрута. Вестник КазАТК, 132(3), 149–157. <https://doi.org/10.52167/1609-1817-2024-132-3-149-157>